

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/377400734>

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ARXIV FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TAMINLASH ISTIQBOLLARI

Conference Paper · March 2022

CITATIONS

0

READS

3

2 authors, including:



[Sanjar Ungalov](#)

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers

14 PUBLICATIONS 1 CITATION

SEE PROFILE

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI



NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



«Innovatsion ta'limda raqamli texnologiyalar: muammo va yechimlar»

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

«Цифровые технологии в инновационном образовании: проблемы и решения»

«Digital technologies in innovative education: problems and solutions»

TOSHKENT 2022-yil 24-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VIZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

NIZOMIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**“DIGITAL TECHNOLOGIES IN INNOVATIVE
EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

international scientific - practical conference

**«INNOVATION TA'LIMDA RAQAMLI
TEKNOLOGIYALAR: MUAMMO VA YECHIMLAR»**

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**«ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИННОВАЦИОННОМ
ОБРАЗОВАНИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»**

международная научно – практическая конференция

TOSHKENT-2022

Yaqinda Tinkercad elektron sxemalarni yaratishga va ularni Arduino virtual taxtasi simulyatoriga ulashga muvaffaq bo'ldi. Bular juda muhim va kuchli asboblari yangi Arduino ishlab chiquvchilari uchun yangi sxemalarni o'rganish, loyihalash va dasturlashni osonlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, biz bu dastur yordamida robototexnikaga oid qurilmalar bilan ishlash ham mumkin. Bilamizki robototexnikaga oida sxemalar va qurilmalarni hamma joyda ham topa olmaymiz va ularning narxi ham qimmat. Bu simulyatorida esa ularni bemalol topishingiz, ulardan yetarlicha foydalanishingiz, ularga kerakli bo'lgan kodlarni kiritishingiz va ularni xavfsiz holatda ishlatishingiz mumkin bo'ladi albatta. Bu simulyatoridan o'qituvchilar, o'quvchilar yoki shu sohaga qiziquvchilarning barchasi foydalana oladi. Yuqorida keltirilgan dasturlardan foydalangan holda o'qish jarayonini tashkillashtirilsa, o'quvchilarning (talabalarning) fanga qiziqish bilan yondoshadilar, hech kimga sir emas hozir yoshlarni tabiiy fanlarga qiziqtirish juda qiyin hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. <http://vakhid.ucoz.ru>, <http://neutrino.ucoz.ru/>
2. Dehkanov Sh. Simulatorlar: o'quv yurtlarida qo'llash perspektivalari, infoCOM.UZ
3. <http://www.tinkercad.com/>
4. <https://t.me/EstudyUz>

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ARXIV FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TAMINLASH ISTIQBOLLARI

Ungalov Sanjar Sayfullo o'g'li
*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan
maktabi informatika fani o'qituvchisi*

Qudiyar Tayrov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti

Arxiv muassalari eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, inson intellektual faoliyatining murakkab sohasini ifodalovchi jamiyat integratsiyasiga katta hissa qo'shadi. Jamiyatning mavjudligining o'zi ilg'or ilmiy bilimlarga bog'liq bo'lib, arxivning vazifasi to'plangan bilimlarni yangi avlodlarga yetkazishdan iborat bo'lishi kerak.

Arxiv muassasasi ushbu tizimning muhim elementi hisoblanadi, shuning uchun ham arxivlar uchun media-makonda bo'lish alohida ahamiyatga ega, chunki jamiyat tarix va ilm-fanga oid ma'lumotlarni doimiy ravishda olishga muhtoj. Bundan tashqari, universitetning ommaviy axborot vositalarida mavjudligi ham jamiyatga hisobot berish shakli bo'lib, uning moliyaviy resurslari asosan arxiv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Qolaversa bu qator omillar, jumladan, arxiv xizmatlari darajasini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, arxivlarning xalqaro reyting tizimiga kirish va arxivlarni jahon arxivlari makoniga integratsiyalash, shuningdek, turli dasturlarda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga imkon beradi.[1]

Yangi O'zbekiston arxivlari nafaqat xujjatlarni saqlash muassasi, balki zamonaviy texnologiyalar rivojlangan, raqamlashtirilgan, ishlanmalar va kashfiyotlar uchun platformaga aylanmoqda. Jadal rivojlanish davrida axborot xizmati tizimining ishlash tamoyillarini qayta ko'rib chiqish zarurdir. Yurtimizda ijtimoiy tarmoqlarning keng rivojlanishi bo'sh vaqtning katta miqdori ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishga va axborotning asosiy qismi ham ijtimoiy tarmoqlar xissasiga to'g'ri kelmoqda. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish faoliyatini keng targ'ib qilish bo'yicha Prezident va hukumat qarorlari qabul qilinmoqda. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366 raqami bilan tasdiqlangan qarori tashkilotlarda axborot xizmati faoliyatiga keng yo'l ochidi.[2]

Hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlarning roli ortib borayotgan bir sharoitda va ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olgan holda, ijtimoiy tarmoqlar orqali barcha maqsadli auditoriya bilan samarali hamkorlik qilish arxivlarning asosiy jihatlaridan biridir. Arxiv faoliyatini targ'ibotida

maqsadli auditoriyalarning juda xilma-xil guruhi mavjud: tashqi maqsadli auditoriya jismoniy va yuridik shaxslar, davlat idoralari va jamg'armalar, akademik va ilmiy hamjamiyat; ichki maqsadli auditoriya xodimlar, arxiv faoliyati targ'ibotdan manfaat oluvchilar.

Arxiv veb-sayti tashkilotning internetdagi rasmiy vakolatxonasi sifatida allaqachon davlatning e'tiborini tortgan, bu bir qator huquqiy va me'yoriy hujjatlar bilan tasdiqlangan. Ammo ijtimoiy tarmoqlardagi arxiv tashkilotlari akkauntlarini samarali boshqarish masalasi to'liq tushunilmagan va tashkilotning ushbu yo'nalishdagi media-kommunikatsiya faoliyati hali ham asosan tizimsiz va tartibsizdir.

Axborot asrida axborot xizmatlari tarixdagi eng muhim o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Doimiy ravishda ortib borayotgan elektron resurslar bilan tanishish imkoniyati toboro ortib borayotgan bir paytda axborot xizmati eski tizim bo'yicha ishlamaoqda. Butun dunyoda xususan O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar tobora rivojlanib axborot olishning asosiy manbasiga aylanib ulgurdi. Statistik ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak axolining mobil qurilmalar bilan taminlanganlik darajasi 100 kisiga 75,9 tani tashkil qilmoqda, lekin aholining 100 kishiga internetdan foydalanish 58,4 tani tashkil etmoqda. Shu o'rinda ijtimoiy tarmoqlarning o'sish suratini bilgan holda arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibotini taminlash va jarayonni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shubhasiz, ijtimoiy tarmoqlar arxiv faoliyatini keyingi bosqichga olib chiqishda katta imkoniyatlarga ega.

Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish orqali bilim olish samaradorligini oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish bo'yicha jaxon va O'zbekiston tajribasini tahlil qilish;
- Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etishda tasniflash va tahlillash borasida qilingan nazariy ishlarni tahlil qilish;
- Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish;

Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish haqidagi ma'lumotlarni yig'ish. Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini

tashkil etishda kerakli ma'lumotlar bazasini yaratish. Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish usullarining jahon tajribasini tahlil qilish. Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish tizimini yaratish modeli va algoritmlarini ishlab chiqish. Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil tizimi tuzilmasini yaratish.[3]

Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish usullarini tahlil qilinib, ularning eng samaradorlaridan foydalanib Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etishni yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish algoritmi va usullari, uning funksional va tashkiliy tuzilmasi, Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish yaratishning asosi hisoblanadi.

Arxiv faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etish jarayonini tashkil etish orqali aholi arxiv faoliyati va arxiv hujjarlaridan habardor bo'lib boradi. Bundan tashqari quydagi iqtisodiy natijalarga erishamiz: Arxiv va axborot xizmati xodimlari orasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ilimi shakllanadi. Arxiv faoliyatida olib borilayotgan ishlar tezkorlik bilan yetkazish imkoniyatini yaratadi. Foydalanuvchilarning axborot qidiruv tezligini oshadi. Aholiga xizmat ko'rsatish, bilim olish samaradorligi yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukwevho, J. and Ngoepe, M. (2019), "Taking archives to the people: The use of social media as a tool to promote public archives in South Africa", *Library Hi Tech*, Vol. 37 No. 3, pp. 374388. <https://doi.org/10.1108/LHT-11-2017-0228>
2. O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz <https://lex.uz/docs/-4390513>
3. Raqamli davrda yangiliklarni nazariy tushunish to'g'risida: strukturaning o'zgarishi, ta'sir kuchlari, hayot aylanishi / N. V. Tkacheva, S. A. Vartanov, D. V. Dunas, A. N. Gureeva // Vestn. Moskva un-bu. Ser. 10, Jurnalistika. - 2016. - No 3. - B. 3-16.